FA Tarix instituti hamda “O’zarxiv” agentligi hamkorligi

O’zR FA Tarix instituti hamda O’zR “O’zarxiv” agentligi o’rtasida o’zaro hamkorlik to’g’risida kelishuv imzolandi.

Ushbu kelishuv O’zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2020-yil 16-mayda o’tkazilgan majlisining 1-bayoni 13-bandiga ko’ra tayyorlangan “Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi” hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasi “O’zarxiv” agentligi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 72-son qarorida qo’yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda imzolandi.

foto: "O'zarxiv" agentligi axborot xizmati

Kelishuvga ko’ra, “O’zarxiv” agentligi tizimidagi davlat arxivlari fondlarida saqlanayotgan arxiv hujjatlarini aniqlash va ulardan ilmiy-ma’rifiy yo’nalishlarda unumli foydalanish, arxiv hujjatlaridan keng foydalanishga qaratilgan birgalikdagi fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy loyihalar dasturlarini ishlab chiqish va bajarish, arxivshunoslik va manbashunoslik yo’nalishlarida ilmiy darajali (tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va tarix fanlari doktori (DcS) mutaxassislarni tayyorlashda hamkorlik qilish, hamkorlikda arxiv manbashunosligi va arxeografiya yo’nalishlari bo’yicha arxiv hujjatlari to’plamlari, ilmiy nashrlar, yo’lko’rsatkichlari, hujjatli filьmlar, videoroliklarni tayyorlash, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarini tashkil etish va o’tkazish, “O’zbekiston tarixi” jurnalining “Hujjatlar tilga kirganda” maxsus ruknida noyob arxiv hujjatlarini muntazam ravishda yoritib borish, muntazam ravishda teleradio dasturlariga ruknlar tayyorlash, matbuot anjumanlari tashkil etish kabi hamkorlik yo’nalishlari ko’zda tutilgan.

Ushbu hamkorlik O’zbekiston tarixi fani rivojiga xizmat qiladi.